



**QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 MAXSUS SON

**INNOVATSION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 2-XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN
materiallari asosida tayyorlangan**



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi
11. Olima ayollarning ilmiy tadqiqot natijalari

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Кусайнов Халел Хаымуллаяевич - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет

Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович

Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмоиддинович Международный университет

туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований

международных экономических отношений, Финансовый университет при

Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета.

Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и

бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета

Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита

Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории

Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового

администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа

Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт

проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Инновационная экономика

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель Редакционного Совета:

Р.Х. Эргашев, доктор экономических наук, профессор
Каршинский государственный технический университет

Заместитель председателя Редакционного Совета:

С.Н. Хамраева, доктор экономических наук, профессор
Каршинский государственный технический университет

Ответственный редактор:

Н.А. Очилова, PhD, доцент
Каршинский государственный технический университет

Технический редактор:

Ф.Ф. Хаккулов, PhD
Каршинский государственный технический университет

Журнал издается один раз в месяц в электронном виде
через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, город Карши, улица Мустакиллик, дом 225

Тел.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 13 95

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

Научно-практический узбекский электронный журнал «Инновационная экономика» включен в перечень национальных научных изданий **Постановлением Президиума Высшей аттестационной комиссии при Главном министерстве образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.**

Статьи публикуются в журнале на основе следующих рубрик:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика региона и отрасли
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг
11. Результаты исследований женщин-ученых

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - и.ф.д., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - и.ф.д., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидиров - доктор технических наук, профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - и.ф.д., профессор (Кубанский государственный университет, Россия)

Кусаинов Халел Хаймуллаевич – кандидат технических наук, профессор (Казахстанский государственный технологический университет)

Самандарзода Искандар Хаким - к.т.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт» Войнаш Сергей Александрович Казанский Приволжский (Федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет Правительство РФ

Садриддинов Манучехр Исламиддинович Международный университет туризма и предпринимательства в Таджикистане, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна – директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогообложения, аудита и бизнес-анализа Финансового университета Российской Федерации

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби

Неземайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита РГГУ

Никонова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансового университета Российской Федерации

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогообложения и налогового администрирования факультета налогообложения, аудита и бизнес-анализа Финансового университета Российской Федерации

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория инноваций управления, Институт проблем управления РАН

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория инноваций управления, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – доктор экономических наук, профессор, академик

Бозоров Орифжон Шодиевич - кандидат технических наук, доцент

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - доктор экономических наук, профессор

Вахабов Абдурахим Васикович - доктор экономических наук, профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович – доктор экономических наук, профессор

Хатамов Очилди Курбанович – доктор экономических наук, профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна – кандидат экономических наук, профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна – кандидат экономических наук, профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна – кандидат экономических наук, профессор

Еркаева Гулбахор Панжиевна – кандидат экономических наук, профессор

Амиркулов Шухрат Олимович – доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - кандидат экономических наук, доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Эргашева Насиба Рахматуллаевна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Meliyeva Nargiza Eshboyevna

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit 603

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari 604

Xushmuradov Oman Nomazovich

Молиявий ҳисоботларда товар-моддий захиралар ҳисобини

халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш 611

Алимханова Нигора Алимхановна

Joriy aktivlarning xalqaro standartlar asosida hisoblanishi va buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'llari 617

Bobobekov Baxrom Kaxharovich

Aktivlar tarkibida investitsion aktiv va uning hisobini to'g'ri tashkil etishning ahamiyati 622

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish 629

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Автотранспорт воситаларидан фойдаланишнинг баҳолаш ёндашувлари 636

Норқобилов Жаҳонгир

Fermer xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda barqaror rivojlanish tamoyillari va yashil iqtisodiyot 641

Jumayeva Gulruh Jo'raqulovna

Korxonalarda moliyaviy majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida hisobga olishning o'ziga xos jihatlari 647

Butunov Shaymardon Berdiyovich

Farmasevtika korxonalarida daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari .. 654

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna

Чорвачилик тармоғини давлат томонидан қўллаб қувватлаш йўналишлари 659

Қурбонов Алишер Бобоқулович, Абдуллаев Жасур Жабборович

Moliya, kredit va investitsiya 666

Liberalization and integration of the financial sector of the republic of Uzbekistan into the global economy 667

Rustam Farmonovich Omanov

Tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini ta'minlashning kapital tarkibini shakllantirish va riskliligini baholash 672

Raxmanov Ilxom Xurramovich

Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni amalga oshirish yo'llari 681

Yulduz Murtazaevna Khasanova, Z.O. Rasulova

Mahalliy budjet xarajatlari tarkibi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri 686

Nabiyev Olimjon Abdisalomovich

Soliqlarning korxonalar moliyaviy holatiga ta'sirini baholash masalalari 694

Babaxonov Ja'far Muxiddinovich

Qoramol go'shti ishlab chiqarishning dehqon va tomorqa xo'jaliklari daromadlariga ta'sirini baholash 699

Qalandarov Ravshan Husanovich

Davlat moliyaviy siyosatini raqamlashtirish maqsadlarini belgilashga tashkiliy-iqtisodiy yondashuv 705

Kolesov Aleksandr Semenovich

Yevropa sug'urta kompaniyalarining tabiiy xavflarni baholash bo'yicha innovatsion tadqiqot tajribasi 711

Oxrimenko Igor Viktorovich

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiya va investitsion muhitning o'rni 716

Shodiyev Bekzod To'lqinovich, Raxmatov Jonibek Ismoil o'g'li

O'zbekistonda islomiy moliya tizimi va bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollari 723

Rajabova Gulinur Bobomurod qizi

Neft-gaz korxonalarida "investitsion faoliyatni moliyalashtirish"ni takomillashtirishda

"investitsiyalar" larning ahamiyati 730

Aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotinini takomillashtirish

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Улучшить классификацию активов, учет и отчетность

Эгамбердиева Салима Раимовна

Improve asset classification, accounting and reporting

Egamberdieva Salima Raimovna

Received: October 14, 2025 Revised: October 16, 2025 ■ Accepted: October 19, 2025 ■ Published Online: November 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada xalqaro standartlarga o'tishda buxgalteriya hisobi obyektlari bo'lgan aktivlarning xususan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq investitsion mulk, biologik aktivlar va sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar kabi yangi atama bilan atalayotgan aktivlarning mazmunan hamda tarkiban o'zgarishi va uning natijasida ularni tasniflanish belgilaridagi va hisobga olishdagi munozarali jihatlar ko'rib chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, biologik aktivlar, investitsiyaviy kuchmas mulk, transformatsiya, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar.
- **Аннотация:** В статье рассматриваются изменения в содержании и составе активов, являющихся объектами бухгалтерского учета, при переходе на международные стандарты, в частности, активов, для обозначения которых в соответствии с требованиями международных стандартов финансовой отчетности используются новые термины, такие как инвестиционная недвижимость, биологические активы и долгосрочные активы, удерживаемые для продажи, а также возникающие в связи с этим спорные вопросы их классификации и учета.
- **Ключевые слова:** международные стандарты финансовой отчетности, биологические активы, инвестиционная недвижимость, трансформация, внеоборотные активы, удерживаемые для продажи.
- **Abstract:** The article examines changes in the content and composition of assets that are objects of accounting during the transition to international standards, in particular, assets for which new terms are used in accordance with the requirements of international financial reporting standards, such as investment properties, biological assets and long-term assets held for sale, and the resulting classification and accounting issues.
- **Key words:** international financial reporting standards, biological assets, investment property, transformation, non-current assets held for sale.

KIRISH

Keyingi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va audit sohasiga alohida e'tibor berilib, so'nggi yillarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorni qabul qilishdan asosiy maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida keng qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda korxonalar moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlash va taqdim qilishga ehtiyojlar paydo bo'lmoqda.

Agar korxonalar buxgalteriya hisobotlarini tayyorlashda xalqaro standartlarga rioya qilmasa, bu ba'zi nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, bunday nomuvofiqliklar yuzaga kelmasligi uchun moliyaviy hisobotlarning yagona xalqaro standartlariga talab mavjud.

Bo'lajak xorijiy investor O'zbekiston tashkilotlari tayyorlagan hisobotlarni tushunmaydi, shuning uchun raqamlar to'g'ri aks ettirilganiga ishonmaydi.

Moliyaviy hisobotlarni MHXSga tarjima qilish va audit o'tkazish juda qiyin, ko'p vaqt va mablag' talab qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy hisobotni takomillashtirishda qator iqtisodchi olimlarning hissasi katta. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan Hermanson R.H. [3], Needles B. [5], Arxipova A.I., Bolshakova A.K. [18] va boshqa tadqiqotchilar moliyaviy hisobotning nazariy-konseptual asoslari hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning metodologik masalalari; moliyaviy instrumentlar va qo'shimcha moliyaviy hisobot (additional financial reporting) masalalari, moliyaviy hisobotning garmonizatsiyasi (harmonisation) masalalarini o'z ishlarida yoritib berganlar. Jumladan, Astaxov V. P. [2], Kachalin V.V. [8], Kuter M.I. [4], Paliy V.F. [9], Sokolov Ya.V. [10], Getman V.G. [6], Drujilovskaya T.Yu., Drujilovskaya E.S. [7] kabi olimlar MHXSni o'z mamlakatlarida qo'llash bilan bog'liq tadqiqotlarni olib berganlar.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda moliyaviy hisobot masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan, shuningdek, ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chop etilgan. Bular qatoriga Xasanov B.A., Nurmanov K.T., Hasanova R.B. [11], Sotivoldiyev A.S., Itkin Yu.M. [12], Tashnazarov S.N. [1], Urazov K.B., Vaxidov S.V. [13], Egamberdiyeva S.R. [14] va boshqa mualliflarning izlanishlarini kiritish mumkin.

Mazkur olimlarning ishlarida uzoq muddatli aktivlar, tovar-moddiy boyliklar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishning metodologik masalalari chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, Dusmuratov R.D. [15] va Ibragimov A.K. va boshqalar [16] tomonidan tayyorlangan ilmiy ishlarda moliyaviy hisobotning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari o'rganilgan. I.Ochilov esa sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish masalalarini tadqiq qilgan. Tashnazarov S.N. [1] o'z darsligida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini yoritgan. Shuningdek, Dusmuratov R.D., Tulayev U.I. tomonidan tayyorlangan tadqiqot ishlarida moliyaviy hisobotning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari keng qamrovda o'rganilgan. I.Ochilov sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish bilan bog'liq jihatlarni chuqur tahlil qilgan. M.Marpatov esa o'z maqolasida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini atroflicha ko'rib chiqqan.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mamlakatimizda buxgalteriya hisobi me'yorlari hamda moliyaviy hisobotni tuzish qoidalari xalqaro standartlar talablariga moslashtirilmoqda.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda ishlab chiqarishning to'rt omili: yer, ishchi kuchi, kapital va tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi [18].

Ishlab chiqarish omillaridan biri bo'lgan kapital iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Mumtoz iqtisodchi David Rikardoning fikricha: "Kapital bu mamlakat boyligining ishlab chiqarishda ishtirok etadigan qismi bo'lib, mashina va jihozlar hamda xom ashyo materiallaridan iboratdir" [21].

Tomas Maltusning fikricha, "kapital - mamlakat zahirasining shunday qismidirki, undan moddiy ne'mat ishlab chiqarish va uni taqsimlash maqsadida foydalaniladi" [22].

Dj.Klark, L.Valras va I.Fisher "kapital-daromad, foyda va foiz keltiruvchi qiymat", deb qaraydilar.

Ammo K.Makkonnell, S.Bryu [23], S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzilar [24] kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari kabilardan iborat, deb tovar va pulni bunga kiritmaydilar.

Ko'rinib turibdiki, ushbu iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy

tuzumning ijtimoiy mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama yondashib, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni qaratgan. Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayevlar [20] Farb olimlarining ayrimlari tomonidan kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olganliklari, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiylikini e'tibordan chetda qoldirib, uning moddiy obyekti, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko'rsatganliklari va shuning uchun kapital doimiy, o'zgarmas tushuncha, deb e'tirof etganliklarini ta'kidlab, kapital mazmunini quyidagicha bayon qilishgan: "Biz bu ikki xil tushunchani bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy ko'rinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz" [20].

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlashda induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, tarkibiy tahlil, statistik tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, kabi usullar qo'llanilgan. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va milliy iqtisodchi olimlarning adabiyot va maqolalari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'yilgan kapital kompaniyaning faoliyatini kengaytirib, kelgusida rivojlanish uchun zarur foyda olish imkoniyatini yaratadi. Foyda olish uchun yo'naltirilgan kapital ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo'lib, bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt o'z ixtiyoridagi pul kapitaliga ishlab chiqarish vositalari va mehnat buyumlarini sotib olishi va unga ishlov beruvchi ishchi kuchini yollashi bilan kapital harakatining birinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda pul shaklidagi mablag'lar unumli kapitalga aylanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni kapital harakatining ikkinchi bosqichini tashkil qilib, unda unumli kapital tovar shaklini oladi. Bu yerda vujudga kelgan tovar qiymati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflangan qiymatdan ko'p bo'ladi. Kapital harakatining uchinchi bosqichi ishlab chiqarilgan tovarlarni sotishni o'z ichiga oladi. Bunda tovarlar pulga aylanib, dastlab pul shaklida sarf qilingan mablag' yana pul shaklida, ammo orttirilgan qiymat hisobiga ko'proq miqdorda qaytadi. Kapitalning bunday bosqichlardan o'tishi, uning doiraviy aylanishini tashkil etadi.

Kapital doiraviy aylanishining mazmuniga ko'ra ikki qismga: asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi. Asosiy kapital qiymati bir necha doiraviy aylanishdan so'ng o'zining boshlanich qiymatini tiklasa, aylanma kapital bir doiraviy aylanishdan so'ng o'zining boshlang'ich shakliga qaytadi.

Kapitalning asosiy va aylanma kapital sifatida farqlanishi 1-jadvalda keltirilgan belgilar asosida amalga oshadi.

1-jadval

Kapitalning aylanma va asosiy kapital sifatida farqlanish belgilari

T/R	AYLANMA	ASOSIY
1	Kapital qiymatining aylanish usuliga ko'ra	
	Bir doiraviy aylanish	Bir necha doiraviy aylanish
2	Kapital qiymatining ishlab chiqarishdan olinadigan daromadga bog'liqlik xususiyatiga ko'ra	
	Daromadning asosini tashkil etadi	Daromadning bir kismini tashkil etadi
3.	Kapitalning ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlariga ko'ra	
	Natural buyum shaklini saqlab qolmay, mahsulot tarkibiga to'liq kiradi	Natural buyum shaklini saqlab qolib, mahsulot tarkibiga kirmaydi
4	Kapital qiymatining qayta tiklanish usuliga ko'ra	
	Ashyoviy buyum sifatida bir doiraviy aylanishdan so'ng qayta tiklanadi	Bir necha doiraviy aylanishdan so'ng amortizatsiyalanib, pul shaklidan asosiy kapital shakliga aylanadi

Kapital qiymatining aylanish usuliga ko'ra, asosiy kapital qiymati ikki qismga ajratilgan bo'lib, mahsulotga o'tgan qismi tovarlar va xizmatlar (ishlar) bilan birga muomalada bo'ladi va doiraviy aylanish jarayonida tovar shaklidan pul shakliga o'tadi va jamg'arilgan amortizatsiya summasi ko'rinishida to'planadi. Kapitalning mahsulotga o'tmagan qismi ishlab chiqarish doirasida mavjud moddiy va nomoddiy kapitalda gavalanganicha qolaveradi. Aylanma kapitalning aylanishi esa bir doiraviy aylanish davriga to'g'ri kelganligi uchun mehnat predmetlari qiymati to'la-to'kis aylanib, yangi mahsulot qiymati tarkibiga kiradi.

Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida bir necha yillar mobaynida ishtirok etishi munosabati bilan ularning qiymati yaratilgan tovarlarga asta-sekin qismlab o'tkazilib boriladi. Bu yerda ishlab chiqarish jarayonida daromad olishga sababchi bo'lgan asosiy kapital bir hisobot davriga to'g'ri keladigan xarajatlar sifatida asta-sekinlik bilan uzoq yillar davomida mahsulot (tovar) qiymatiga o'tkazib boriladi. Aylanma kapital esa ushbu hisobot davriga tegishli bo'lgan daromadning asosini tashkil qilgan bo'lib, o'z qiymatini mahsulot qiymatiga to'lig'icha o'tkazadi.

Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatiga ko'ra asosiy kapital buyum jihatdan mahsulot tarkibiga kirmaydi, balki uzoq davr mobaynida o'zining natural-buyum shaklini saqlab qoladi. Aylanma kapital esa o'zining natural-buyum shaklini to'lig'icha mahsulot tarkibiga o'tkazadi.

Qiymatni qayta tiklash usuliga ko'ra asosiy kapitalning ishlab chiqarishdan olingan daromadga o'tkazilgan qiymati bir necha doiraviy aylanishlar davomida qatnashadi va amortizatsiyalanadi, pul shaklidan yangi asosiy kapital shakliga aylanadi. Aylanma kapital esa har bir doiraviy aylanishdan so'ng ashyoviy buyum sifatida qayta tiklanadi. Buxgalteriya hisobi ham iqtisodiy fan sifatida iqtisodiy tushuncha va qonuniyatlarni o'z maqsadi va vazifalari doirasida tadqiq etadi. Kapital tushunchasi buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan ham o'rganilishi tabiiydir.

Buxgalteriya hisobi darsligida kapitalni ta'xischilar tomonidan qo'yilgan ulushlar majmuasi va korxonalar tomonidan jamg'arilgan foyda deb qaralgan [25].

Amerikalik olimlarning fikricha, kapital-mulkdorning ixtiyoridagi moddiy va nomoddiy shakldagi mablag'lar va pul mablag'lari kabi iqtisodiy resurslardir [26]. Ushbu mulohazalar kapitalning iqtisodiy kategoriya ekanligini to'liq yoritmaydi. Balki bu ta'riflar kapital mohiyatini buxgalteriya hisobi kategoriyasi sifatida ochib beradi, xolos. Bizning fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasida kapital tushunchasiga berilgan ta'riflar ko'proq nazariy, umumlashgan holda bo'lib, uning o'z-o'zidan ko'payish xususiyatini aks ettiradi. Buxgalteriya hisobidagi ta'riflarda esa uning aniq namoyon bo'lish shakllariga,

buyumlashganligiga ko'proq urg'u beriladi. Bunday yondashish hech ham iqtisodiyot nazariyasiga zid emas. Buxgalteriya hisobida qiymatning qayerda ko'payishi va qanday ko'payish jarayoni, uning manbalari aniq bandlarda ko'rinib turadi. Demak, buxgalteriya hisobida kapitalga iqtisodiyot nazariyasida berilgan ta'rif yanada puxta tizimlashgan shaklda oydinlashadi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan asosiy kapital avvalo iqtisodiy kategoriya bo'lib, tayyorlash, ishlab chiqarish va sotish hamda noishlab chiqarish sohasida ishtirok etayotgan va kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan aktivlardir. Asosiy va aylanma kapitalga ajratish mezoni negizida ularning ma'lum bir qiymatga bog'likligi emas, balki iqtisodiy naf keltira olishi yotishi kerak.

Xo'jalik yuritishning rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asosan ishlab chiqarish vositalarigina asosiy kapital sifatida gavalanganligini va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olinadigan daromadlar sababchisi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Jamiyatning rivojlanish bosqichida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi ishlab chiqarish omillaridan bo'lgan kapitalning tarkibiy qismi bo'lgan asosiy kapital qatorida nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar kabi aktivlar vujudga kela boshladi. Ushbu aktivlarning xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatidagi ishtiroki va daromad olishdagi ulushlari asosiy kapitalga aynan o'xshamasada, lekin korxonalar faoliyatida bir doiraviy aylanishdan ko'ra ko'proq muddatda ishtirok etishlari va daromad olishga sababchi bo'lishlari asosiy kapitalga nisbatan o'xshashlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham asosiy kapitaldan farqlanuvchi aktivlarning vujudga kelishi endilikda buxgalteriya hisobida asosiy vositalar sifatida tan olingan va aksariyat korxonalarning buxgalteriya balansida faqatgina asosiy vositalarning aks ettirilishiga barham berildi. Asosiy vositalar bilan bir qatorda nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital qo'yilmalar, investsiion mulk, biologik aktivlar, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar, kechiktirilgan xarajatlar va debitorlik qarzlari ham aks ettirish zaruriyati kelib chikdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishtirok etadigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar deb e'tirof etilib, ular shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital) va joriy aktivlar (aylanma kapital) kabi guruhlariga ajratiladi. Bunday guruhlariga ajratishning asosini "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun" tashkil kiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy konsepsiyasidir.

Aktivlarning uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlariga ajratilishi, ularning bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog'likligi kapital hisobining iqtisodiy konsepsiyasini tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi obyekt

sifatidagi konsepsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos kilib olinishi lozim.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma'nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish muammolari bilan bevosita bog'likdir. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar korxonaga tegishli xo'jalik mablag'lari deb tan olingan va e'tirof etilgan. Ammo bu e'tirof asosan asosiy kapitalga taallukli bo'lgan.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitidagi davrda uzoq

muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa ob'yektlari ham paydo bo'lganki, ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar, investiiion mulk, biologik aktivlar, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar, uzoq muddatli debitor qarz va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham korxonada faoliyatida uzoq muddat ishtirok etadi.

2-jadval.

Uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi va tavsiflanishi

TASNIFI	TAVSIFI	TARKIBI	
		AMALDAGI	TAKLIF ETILAYOGAN VARIANT
Moddiy aktivlar	Korxonada faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan moddiy mablag'lar	<ul style="list-style-type: none"> - asosiy vositalar; - uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; - kapital qo'yilmalar; - o'rnatiladigan jihozlar 	<ul style="list-style-type: none"> Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar; uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; kapital qo'yilmalar; -o'rnatiladigan jihozlar; -investiion mulk; -biologik aktivlar; -sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar.
Nomoddiy aktivlar	Korxonada faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan, identifikatsiya lanuvchi, moddiy buyumlashgan shaklga ega bo'lmagan aktivlar	<ul style="list-style-type: none"> - patent; - savdo markasi; - tovar belgisi; - dasturiy ta'minot; - yerdan foydalanish huquqi; - tashkiliy xarajatlar; - franchayz; - mualliflik huquqi; - gudvill 	
Moliyaviy aktivlar	Kelgusida foiz (dividend), ulush ko'rinishida daromad olish maqsadida boshqa korxonalar faoliyatiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan mablag'lar	<ul style="list-style-type: none"> - qimmatbaxo qog'ozlar; - avlod korxonalarga investitsiyalar; - qaram xo'jaliklarga investitsiyalar; - xorijiy kapitalli korxonalarga investitsiyalar 	
Muddati uzaytirilgan debitor qarzlari va kechiktirilgan xarajatlar	Bir yildan uzoq muddatga uzaytirilgan debitorlik qarzlari va kechiktirilgan xarajatlar	<ul style="list-style-type: none"> - olinadigan veksellar; - uzoq muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar; - xodimlarning qarzlari bo'yicha to'lovlar; - vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad solig'i; - kechiktirilgan qarzlari bo'yicha diskontlar 	

Shulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo'lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar va investitsion mulk sifatida e'tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jihatlarda uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va tavsiflash asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi yetarlicha o'rganilmagan.

Fikrlarni umumlashtirib shu narsani aytish mumkinki, uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektning

moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga boshqaruv uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish maqsadida ularni quyidagi tartibda tasniflash va tavsiflash mumkin (2-jadval).

Bizning fikrimizcha, yuqorida bayon qilingan fikrlar, bir tomondan, uzoq muddatli aktivlar tarkibini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga uyg'unlashtirishga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, korxonada faoliyatini tahlil qilishda ko'rsatkichlar tizimini tartibga solishni osonlashtiradi.

Uzoq muddatli aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ixcham va yetarli darajada olish imkoniyatini tug'dirish hamda tahlil qilishni osonlashtirish uchun buxgalteriya hisobi balansining "Uzoq muddatli aktivlar" nomli 1-bo'limini quyidagicha ko'rinishda ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi (3-jadval).

3-jadval

Xususiy korxonaning uzoq muddatli aktivlarini buxgalteriya balansida ifodalash (2025-yil 1-yanvar holatiga, ming so'mda)¹

BALANS MODDALARINING NOMI	SATR KODI	DAVR BOSHIGA	DAVR OXIRIGA
I bo'lim. Uzoq muddatli aktivlar			
1.1.Moddiy aktivlar (0100+0300+0700+0800-0200)		1 500 000	1 600 000
1.1.1. Investitsion mulk (0191)*			
1.1.2. Biologik aktivlar (0192)*			
1.1.3. Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar(0193)*			
1.2. Nomoddiy aktivlar (0400+0830-0500)		200 000	250 000
1.3. Moliyaviy aktivlar (0600)		500 000	550 000
1.4. Uzoq muddatli debitor qarzlari va muddati kechiktirilgan xarajatlar (0900)		300 000	400 000
I bo'lim bo'yicha jami		2 500 000	2 800 000

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro standartlar talablariga muvofiq moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning asosiy moddalariga tarkibiy quyi moddalarini ochish axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos axborotlarni taqdim qilish imkoniyatini beradi.

"Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar", uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, o'rnatiladigan jihozlar, investitsion mulk, biologik aktivlar, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar, debitorlik va kreditorlikni tan

olish, baholash, tasniflash va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish asosida "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ning shaklini ishlab chiqish, uning zarur va kerakli axborotlarni qamrab olishi hamda moliyaviy holatga haqqoniy baho berish imkoniyatlarini kengaytiradi va qabul qilinayotgan qarorlarning sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Ichki axborot foydalanuvchilar manfaatidan kelib chiqib, "Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar"ning harakati to'g'risidagi hisobot", "Investitsion mulk turlari bo'icha hisobot" va "Biologik aktivlar to'g'risida hisobot" shakllarini joriy etish hamda hisobotga "mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar", "Investitsion mulk (turlari bo'yicha)", va "Biologik aktivlar"ning qiymati kelib tushishi, modernizatsiya

va rekonstruksiya, texnologik qayta jihozlash, tasarruf etilishi, qadrsizlanishi va boshqa omillar hisobidan o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiritilganligi uzoq muddatli moddiy aktivlardan samarali foydalanishni nazorat qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Uzoq muddatli aktivlar korxonada faoliyatida ishtirok etadigan muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida mazkur iqtisodiy kategoriya yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shuning uchun uning toifalarini aniqlovchi asosiy tavsiflarni har tomonlama ko'rib chiqish zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Egamberdiyeva Salima Rayimovna, Qarshi davlat texnika universiteti, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent / Эгамбердиева Салима Раимовна, Каршинский государственный технический университет, кандидат экономических наук, доцент / Egamberdieva Salima Rayimovna, Karshi State Technical University, Candidate of Economic Sciences, associate professor

► salimaegamberdiyeva147@gmail.com

■ ORCID: 0009-0000-5106-7166

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Tashnazarov S.N. (2019). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent, 555 b.
- [2]. Астахов, В.П. (2011) Бухгалтерский (финансовый) учет: учебное пособие для вузов / 9-е изд.-Москва : Издательство Юрайт, 955 с.
- [3]. Hermanson R.H. (1992). Accounting principles: Chapters 1-14, Volume Edition 5 PublisherIrwin, 1992 Length 473 pages.
- [4]. Кутер М.И. (2013). Введение в бухгалтерский учет: учебник / Краснодар: Просвещение-Юг, 512 с.
- [5]. Нидлз Б. (2004). Принципы бухгалтерского учета: Пер. с англ. / Б.Нидлз, Х.Андерсон, Д.Колдуэлл; Гл. ред. серии Я.В.Соколов - М.: Финансы и статистика, 496 с.
- [6]. Гетьмана В.Г. (2012). Международные стандарты финансовой отчетности: учебник /под ред. В. Г. Гетьмана. 2-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2012.
- [7]. Дружиловская Т.Ю., Дружиловская Э.С. (2019). Модернизация финансовой отчетности организаций в условиях цифровой экономики. Учет. Анализ. Аудит. Ст. 50–61.

- [8]. Качалин В.В. (1998). Финансовый учет и отчетность в соответствии со стандартами ГААП| учебное пособие. Стр. 400
- [9]. Палий В.Ф. (2008). Международные стандарты учета и финансовой отчетности: Учебник. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: ИНФРА-М, 512 с.
- [10]. Соколов Я.В. (2009). История бухгалтерского учета (монография, в соавторстве с Соколовым Я.В. 3 издания), (3-е издание), М. учебник / изд-во «Магистр»,
- [11]. Xasanov B.A., Nurmanov K.T., Hasanova R.B. (2021). Zamonaviy boshqaruv hisobi. Darslik/ T.: “LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti, 413 b.
- [12]. Sotivoldiyev A.S., Itkin Y.M.(2002). Zamonaviy buxgalteriya hisobi.- T.: O'zbekiston BAMA nashr. I-II-tom. 122 b.
- [13]. Urazov K.B., Vaxidov S.V. (2010). Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik, 445 b.
- [14]. Egamberdiyeva S.R. (2021). Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 573 bet.
- [15]. Dusmuratov R.D. (2013). Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik.–T.:Fan va texnologiya, 476-b.;
- [16]. A.K.Ibragimov va b. (2016) Amaliy boshqaruv hisobi. –Toshkent: Iqtisodiyot.
- [17]. Egamberdiyeva S.R. Xalqaro standartlar asosida qishloq xo'jaligida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish. 2024-yil, may. Maxsus son. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 71-75 bet.
- [18]. Экономика: учебник / Под ред. Архипова А.И., Болшакова А.К. - М.: “Проспект”, 2005. - С. 151.
- [19]. Экономическая теория: учебник для студ. вузов. / Камаев В.Д. и др. - М.: “ВЛАДОС”, 1999. - С. 154;
- [20]. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.X., Jurayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: “Moliya”, 2002. - 35-b.
- [21]. Пети В., Смит А., Рикардо Д. Антология экономической классики. - М.: “Экономика”, 1993. -С. 117.
- [22]. Маршалл А. Принципы политической экономии. / Пер. с англ. - М.: “Прогресс”, 1981. -С. 107.
- [23]. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: 17-е изд. - М.: “ИНФРА-М”, 2009. -С. 107.
- [24]. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. - М.: “Дело-ЛТД”, 1995. -С. 127.
- [25]. Бухгалтерский учет. / Под ред. Безруких П.С. -М.: “Бухгалтерский учет”, 2002. -С. 527.
- [26]. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэль Д. Принципы бухгалтерского учета. / Под ред.Я.В.Соколова. -М.: “Финансы и статистика”, 1994. -С. 24.